

**KORPORATIV NIZOLARNI HAL ETISH JARAYONIDA YURIDIK XIZMAT
FAOLIYATI (SUD VA SUDDAN TASHQARI TARTIBDA)**

Aliqulova E'zoza Baxodir qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisod fakulteti Yurisprudensiya 2-kurs talabasi.

ezozaaliqulova38@gmail.com.

+99890-043-11-05

Ilmiy rahbar: Imomov Bahriiddin Panjiyevich

*Toshkent davlat transport universiteti, Xalqaro ommaviy huquq
kafedrasi katta o'qituvchisi.*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:01.05.2026

Revised: 02.05.2026

Accepted:03.05.2026

KALIT SO'ZLAR:

*korporativ
munosabat, korporativ
nizo, korporativ nizo
sub'yekti, mediativ
kelishuv, da'vo ariza,
divident undirish,
mediatsiya*

Mazkur maqolada korporativ nizolar bo'yicha umumiy tushunchalar, korporativ nizolarni hal etish jarayonida yuridik xizmat faoliyati sud tartibi va suddan tashqari tartibda faoliyati, yuridik xizmatning asosiy faoliyati vazifalari, shuningdek korporativ nizolarni o'ziga xos xususiyatlari va korporativ nizolar bo'yicha sudga murojat qilish tartibi tahlil qilinadi.

So'ngi yillarda milliy iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, qonunchilikni liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, mulkiy munosabatlarda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini to'liq joriy etishga to'sqinlik qiluvchi tartiblar, talablar va cheklovlarni aniqlash, ularni bekor qilish bilan bog'liq qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish

=====
tobora ortib bormoqda. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida birgalikda faoliyatni boshlagan ishtirokchilar (ta'sischi)ni qoida tariqasida, muayyan maqsadga erishishga bo'lgan intilish, moddiy manfaatdorlik birlashtirib turadi va ular shu maqsad sari birgalikda harakat qilishadi. Ammo muayyan vaqt o'tishi bilan ayrim ishtirokchilar turli sabablarga ko'ra jamiyat faoliyatiga bo'lgan qiziqishni yo'qotishi oqibatida uning faoliyatidagi ishtirokiga yakun yasashadi, ba'zida esa muayyan holatlar va vaziyatlar bo'yicha ular bir-birlari bilan janjallashib ham qolishadi. Bunday holatlar nafaqat ishtirokchilar, shuningdek jamiyat boshqaruv organlari faoliyatida ham uchrab turadi.

Korporativ munosabatdagi bu kabi kelishmovchiliklarni muzokaralar orqali hal etish imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda, korporativ munosabat subyektlari o'z buzilgan huquqlarini sud orqali himoya qilishga harakat qilishadi. Korporativ huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat qilinadi va u IPKda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jumladan, IPKning 3-moddasida ko'rsatilishicha, har qanday manfaatdor shaxs o'zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun iqtisodiy sudga IPKda belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.

Ma'lumki, sudga murojaat qilish – sud orqali himoyalani huquqidan foydalanishdagi dastlabki qadam hisoblanadi. Sudga murojaat qilish borasida IPKda belgilangan tartibga rioya qilinmaslik nizoning sudga ko'rib chiqilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Korporativ nizolarning sudga taalluqliligi, ya'ni mazkur toifadagi nizolarning qaysi sud tomonidan ko'rib chiqilishi protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ular murakkab toifadagi nizolar hisoblanadi. Chunki bunday nizolarda aksariyat hollarda taraflarning soni ko'p miqdorda bo'ladi va ularning hal etilishi bir qancha huquq subyektlarining, shu jumladan, davlat organlarining huquq va majburiyatlariga ta'sir qiladi. Korporativ nizolarning subyektlari sifatida ham yuridik shaxslar, ham jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Shu sababli bunday toifadagi nizolarni ko'rishda huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan barcha shaxslarni aniqlash hamda ularni ishga jalb qilish orqali taraflarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash muhim hisoblanadi, Korporativ nizolar bo'yicha ishlar asosan fuqarolik huquqiy munosabatlaridan yuzaga keladigan nizolar hisoblanishi sababli bunday nizolar da'vo tartibida ko'rib chiqiladi. Korporativ huquqiy munosabat ishtirokchilari o'z huquqlari himoya qilish uchun asosan sudlarga murojaat qilishadi. Chunki, korporativ huquq sohasida ishtirokchilarni huquqlarini himoya qilishning eng samarali usuli sud orqali himoya qilishdir. Korporativ nizolarga oid arizalar bilan sudga murojaat qilishning yana bir xususiyati shundan iboratki, ular bo'yicha sud buyrug'i berilmaydi. Shu bois korporativ nizo

yuzasidan sud buyrug‘i berish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilinganda, ariza PKning140-moddasiga asosan qabul qilinishi rad etilishi lozim.

Korporativ nizolarning o‘ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- taraflar sifatida yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ishtiroki;
- da‘vo arizasidagi talab ham mulkiy (masalan: dividend undirish, aksiyalar qiymatini undirish) ham nomulkiy (masalan: yuridik shaxs boshqaruv organlari qarorlarini haqiqiy emas deb topish) xususiyatga ega bo‘lishi;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasining kengligi;
- har qanday korporativ nizo bo‘yicha jamiyatning ta‘sis hujjatlarini o‘rganilishi; zaruratga qarab yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlardan hujjatlarni talab qilib olinishi.

Korporativ nizolarni hal etish asosan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi, “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa qonun hujjatlari qo‘llanilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to‘g‘risida” 2014 yil 20 iyundagi 262-sonli qarorida berilgan tushuntirishlar ham ishlarni ko‘rishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporativ nizolarni hal qilishda suddan tashqari taritibda hal qilish asosan muzokara va mediativ kelishuvlari kiritiladi. Muzokaralar tomonlar o‘rtasida o‘zaro maqbul yechimga erishish uchun muhokama qilishni o‘z ichiga oladi. Mediatsiya osonlashtirish va kelishuvga erishishga yordam berish uchun neytral uchinchi shaxsdan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu mexanizmlar nizolarni tez va tinch yo‘l bilan hal qilishda samarali bo‘lishi mumkin va tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni saqlab qolishga yordam beradi. Korporativ nizolarni hal qilish bo‘yicha muzokaralar odatda tomonlar va ularning vakillari, masalan, advokatlar voki mediatorlar o‘rtasida bir qator uchrashuvlar voki muhokamalarni o‘z ichiga oladi. Tomonlar o‘zaro maqbul kelishuvga erishish maqsadida ma‘lumot almashishlari, takliflar kiritishlari va boshqa aloqa shakllarini amalga oshirishlari mumkin. Muzokaralar jarayoni turli usullarni o‘z ichiga olishi mumkin, masalan, manfaatlarga asoslangan savdolashish, pozitsion savdolashish va muammolarni birgalikda hal qilish. Korporativ nizolarni hal qilish bo‘yicha muzokaralar an’anaviy sud jarayoniga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lishi mumkin. Ular sudga murojaat qilishdan ko‘ra kamroq vaqt va mablag‘ sarflashi mumkin, balki tomonlarning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan holdayanada ijobiy yechimlar paydo bo‘lishi mumkin.

Biroq, korporativ nizolarni hal qilish bo'yicha muzokaralar ham o'z qiyinchiliklariga ega. Kuchlar nomutanosibligi yoki hissiy muammolar mavjud bo'lganda, tomonlar umumiy til topishda murakkabliklarga duch keladi. Shuningdek, muzokaralar bir tomon ikkinchisini mantiqsiz deb hisoblash, yoki yomon niyat bilan harakat qilishi natijasida to'xtashi mumkin. Umuman olganda korporativ nizolarni hal qilish bo'yicha muzokaralar an'anaviy sud jarayoniga qaraganda nizolarni samaraliroq hal qilish uchun qimmatli vosita bo'ladi.

Korporativ nizolarni hal qilishda asosiy muammolar qonun hujjatlarini bir xilda qo'llamaslik, da'vo muddatlari bilan bog'liq murakkabliklar va sudgacha bo'lgan tartibotlarning samarasizligidir. Samarasizlik ko'pincha rahbarlar va aksiyadorlar o'rtasidagi qarashlar tafovuti hamda huquqiy me'yorlarning xalqaro tajriba bilan yetarli darajada moslashmaganligidan kelib chiqadi. Nizolarni bartaraf etish uchun mediatsiya va arbitraj kabi muqobil usullarni rivojlantirish zarur.

Korporativ nizolarning asosiy muammoli jihatlari:

1. Korporativ nizolarni hal etish jarayonida quyidagi asosiy qiyinchiliklar kuzatiladi:
2. Huquqiy normalarni qo'llashdagi nomuvofiqliklar: Iqtisodiy sudlar tomonidan qonun hujjatlarini to'g'ri va bir xilda qo'llashda ba'zida qiyinchiliklar yuzaga keladi, bu esa qarorlarning turlicha qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.
3. Da'vo muddati instituti: Korporativ nizolarda da'vo muddatini to'g'ri belgilash va unga rioya qilish muhim huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon ko'pincha murakkabliklar tug'diradi.
4. Sudgacha hal etish mexanizmlarining yetishmasligi: Ko'p hollarda nizo darhol sudga o'tadi, holbuki ichki yig'ilishlar yoki mediatsiya orqali hal qilish imkoniyatlari to'liq ishlatilmaydi.
5. Vertikal nizolar va boshqaruv: Rahbarlar va menejerlar o'rtasidagi talablarning bajarilmasligi hamda yechimga qarashlarning turlicha bo'lishi nizoni chuqurlashtiradi.
6. Xalqaro tajribani moslashtirish: Milliy qonunchilikni xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba bilan uyg'unlashtirishdagi bo'shliqlar nizolarni hal qilish strategiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Yechimlar:

Nizolarni samarali hal qilish uchun quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

1. Muqobil usullardan foydalanish: Mediatsiya va arbitraj kabi usullarni rivojlantirish orqali sud yukini kamaytirish.
2. Huquqiy bazani takomillashtirish: Qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish va sud amaliyotini yagona standartga keltirish.

3. Mutaxassisga murojaat qilish: Murakkab vaziyatlarda sudgacha bo'lgan bosqichda malakali yuristlar yordamidan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, korporativ nizolarni hal qilishda yuridik xizmatning roli juda muhimdir. Yuridik xizmatlar sud va suddan tashqari tartibda korporativ nizolarni hal qilishda bir qator imkoniyatlar taklif etadi.

Sud tartibi: Agar nizoni hal qilishda tomonlar kelisha olmasa, sudga murojaat qilish zarur bo'ladi. Yuridik xizmatlar sudda tomonlarni himoya qilish, zarur hujjatlarni tayyorlash va sud jarayonida maslahat berishni ta'minlaydi. Bunda, advokatlar ehtiyot choralarini ko'rish va zarur dalillarni taqdim etilishiga yordam beradi.

Suddan tashqari tartib: Ko'plab korporativ nizolarni hal qilishda suddan tashqari tartib, masalan, muzokaralar, arbitraj yoki vositachilik orqali hal qilish ko'proq maqbul va iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi mumkin. Yuridik xizmatlar, bu jarayonlarda tomonlarni bir-biriga yaqinlashtirish, kelishuvlarni amalga oshirish va muammolarni muhokama qilish uchun yordam beradi. Yuridik xizmatlar ushbu jarayonlarda professional maslahatlar va yordam ko'rsatishi orqali nizolarni samarali hal qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Korporativ nizo tushunchasi va turlari va ularni sudda ko'rishning o'ziga xos jihatlari. Maqsudbek Saidov O'zbekiston Respublikasi Oliy sud sudyasi, Amaliy qo'llanma. Toshkent-2019.

2. Корпоратив низоларни судда кўришга оид айрим масалалар /амалий қўлланма / С.Холбаев, М.Саидов. – Тошкент:, 2023. – 128 б.

3. Северин Д.Н. Рассмотрение судами споров, вытекающих из условий учредительства хозяйственных обществ (корпоративные споры). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Минск, 2014. Стр.

4. Ibratova Feruza Boboqulovna. Iqtisodiy va korporativ nizolarni hal qilish, Darslik. TDYU nashriyoti-2022-376-b.

5. H.R. Rahmonqulov, S.S. Gulyamov. Korporativ huquq Huquqshunoslik oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T.- TDYI nashriyoti, 2008. 448-b.